

**PSIXOLOGIYADA IJTIMOIIY FAOLLIK VA MULOQOTCHANLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING MUHIM VAZIFALARI**

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM BO'LIMIGA
QARASHLI 2- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
SUROBOVA SHAXODATJON SOIBOVNA

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy faollik va muloqotchanlikning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati, ularni shakllantirishning psixologik asoslari hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim vazifalar yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va ijtimoiy muhitning shaxs muloqot madaniyatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, muloqotchanlik, psixologiya, shaxs rivojlanishi, kommunikatsiya.

Kirish

Bugungi kunda shaxsning ijtimoiy faolligi va muloqotchanligi jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Insonning boshqalar bilan samarali muloqot qila olishi, jamoada faol ishtirok etishi uning shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy faollik insonning jamiyat hayotida faol qatnashishi, tashabbus ko'rsatishi va atrofdagilar bilan hamkorlik qila olishidir. Bunday sifatlar bolalik davridan boshlab shakllanadi. Muloqotchanlik esa insonning boshqalar bilan erkin va samarali aloqa o'rnatish olish qobiliyatidir. Muloqot orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, tajriba almashadi va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi. Psixologik jihatdan ijtimoiy faollik va muloqotchanlik shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi bilan chambarchas bog'liqdir.

Asosiy Qism

O'ziga ishongan inson jamoada faolroq bo'ladi. Oilaviy muhit bu sifatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ota-onaning farzand bilan ochiq va samimiy muloqoti bolada kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Maktab ham ijtimoiy faollikni shakllantirishning asosiy muhitlaridan biridir. Guruhiy ishlash, munozaralar va turli tadbirlar o'quvchilarning jamoa bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Muloqotchanlikni rivojlantirishda psixologik trening va interaktiv metodlar samarali hisoblanadi. Rolli o'yinlar va jamoaviy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar erkin fikr bildirishga o'rganadi. Tengdoshlar bilan sog'lom munosabat o'rnatish ham ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi. Do'stona muhit shaxsning emotsional barqarorligini mustahkamlaydi. Ijtimoiy faolligi



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

yuqori bo'lgan o'quvchilar turli tashabbuslarda faol qatnashadi, liderlik qobiliyatini namoyon qiladi va jamiyatga foydali bo'lishga intiladi. Maktab psixologi o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etishi muhimdir. Bu o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmasini shakllantiradi. Emotsionallik tug'ma bo'ladi, lekin affektlar, sezgilar hayot jarayonida rivojlanadi, bu esa insonning shaxs sifatida rivojlanishini bildiradi. Bunday rivojlanish inson emotsional sohasiga yangi ob'ektlarni kiritish, shaxs sezgilarini ongli irodaviy boshqarish va nazorat qilish darajasining oshishi ahloqiy boshqarishga yuksak ahloqiy qadriyatlar (vijdon, mas'uliyatlik, nomus va boshqalar) ning asta-sekin kiritilishi bilan bog'liq. Muloqot shaxslarning hamkorlik faoliyati ehtiyojlari asosida tug'iladigan, ular o'rtasidagi aloqa rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni qamrab oladi. Bu muloqotning kommunikativ tomonini ifodalaydi. Odamlar o'zaro munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning xos tomoni muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri bo'lib, bunda faqat so'zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Bunda emotsiyalarning o'ziga xos ahamiyati va o'rnini mavjud bo'lib, quyida ularni batafsil ko'rib chiqamiz. Shaxslararo munosabatlarda noverbal kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko'z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya - so'zni to'ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o'rnini bosadi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo'ladi. Masalan, bolalar ko'pincha kattalarga ta'sir etish, ularga o'z xohish va kayfiyatlarini o'tkazishda yig'idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so'z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turi hisoblanadi. Inson emotsional hayotining rivojlanishida ma'lum bo'lgan izchillik mavjud. Lekin bir davr sezgisidan keyingi davr sezgisiga o'tish shaxsning har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq. Hissiyotlar odam energiyasini to'plovchi faoliyatga nisbatan kuchli rag'bat bo'lishi mumkin, asosiysi, ularni tegishli tarzda yo'naltirishdir. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning birinchi belgisidir.

Har bir inson uchun ijobiy emotsional ta'sirlanishlarni kuchaytirish va kengaytirish bilan bir vaqtda boshqa odamlar emotsional holatiga samarali ta'sir ko'rsatish malakasiga ega bo'lish juda muhimdir. Zararli emotsional ta'sirlanishlar ko'p hollarda yuqori emotsional zo'riqish vaziyatlarida, o'ta toliqqan holatlarda, frustratsiya vaqtida, odamlar ta'sirchanligida, ishlar ko'ngilgidek yurishmaganida, hayotiy muhim rejalar barbod bo'lganida yuzaga kelishini bilish va yodda tutish lozim. Amaliy hayotda emotsiyalar sifatida, odatda, insonning turli-tuman javob reaksiyalari – ehtirosning to'liqinli portlashlaridan tortib, to kayfiyatning nozik tuslarini tushunamiz. Psixologiyada emotsiyalar deb kechinmalar shaklidagi inson hayotiy faoliyati



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

uchun tashqi va ichki vaziyatlarni baholash va shaxsiy ahamiyatni aks ettiradigan psixik jarayonlarga aytiladi Emotsiyalarning mohiyatini tushunish uchun tashqi muhitning jism va hodisalarining ko'pchiligi his-tuyg'u organlariga ta'sir ko'rsatib, ularda murakkab, ko'p qirrali emotsional hissiyotlar, sezgilari va bir vaqtning o'zida ham zavqlanish ham qoniqmaslikda ifodalanadi. Bundan tashqari, ko'pchilik vaziyatlarda, bir tomondan, qandaydir zo'riqish sezgilari, ikkinchi tomondan, hal etish, yoki yengil tortish yuzaga keladi. Faoliyatning keskin damlarida, qaror qabul qilishning mas'uliyatli daqiqalarida qiyinchiliklarni bartarf etishda biz zo'riqishni his etamiz.

1872-yilda Ch.Darvinning «Inson va hayvonlarda hissiyotlarning ifodalanishi» asarini chop etildi. Darvinning fikriga ko'ra, hayvon va odam hulq-atvori o'rtasida umumiyliklar mavjud. O'z fikrini u hayvonlar va odamlar turli emotsional holatlarining tashqi ifodalanishini kuzatishdan kelib chiqqan holda, asoslab berdi. Ushbu kuzatishlardan olingan ma'lumotlar evolyutsion ta'limot nomini olgan hissiyotlar nazariyasi asosiga qo'yildi, bu ta'limotga asosan, hissiyotlar tirik mavjudotlar evolyutsiyasi jarayonida hayotiy muhim bo'lgan organizmning yashash sharoitlari va vaziyatlariga moslashishni ta'minlovchi moslashish mexanizmlari sifatida yuzaga keladi. Hissiyotlarning hozirgi zamon tarixi 1884 yilda U.Djemsning «hissiyot nima?» maqolasining chop etilishidan boshlanadi. U.Djeyms va G.Lange bir-biridan mustaqil ravishda hissiyotlar nazariyasini ishlab chiqdilar. Unga asosan, hissiyotlarning paydo bo'lishi hosil qilinadigan tashqi ta'sirlar, ixtiyoriy harakat va tizimlar sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar, emotsional kechinmalarning xuddi o'zidir. Djems bo'yicha, «yig'laganimiz sababli qayg'ulimiz; qaltiraganimiz uchun qo'rqamiz; kulganimiz uchun xursand bo'lamiz». Bu hissiy xabar miyaga ta'sir ko'rsatib, ma'lum hulqatvorni o't oldiradi, teskari somatosensor va visserosensor afferentatsiya esa hissiyotni yuzaga keltirishini bildiradi. Lekin DjemsLange konsepsiyasi bir qator e'tirozlarga sabab bo'ldi. Organik va emotsional jarayonlarning nisbatiga U.Kennon qarama-qarshi fikr bildirdi. Uning aniqlashiga ko'ra, insonda sun'iy tarzda hosil qilinadigan organik o'zgarishlar har doim ham hissiyotli kechinmalar birgalikda kuzatilmaydi. Keyinchalik, P.Bardning ko'rsatishicha, haqiqatda, tana o'zgarishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan hissiyotli kechinmalar deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi, bosh miya tuzilishidagi barcha qismlardan esa hissiyotlar bilan talamusning o'zi emas, balki, gipotalamus va limbik tizimning markaziy qismlari bog'lanadi. Lindsey-Xebbnings faollashtirish nazariyasi Djems-Lange va KennonBardlarning psixoorganik nazariyalaridan so'ng paydo bo'ldi. Bu nazariyaga ko'ra, emotsional holatlar bosh miya quyi qismi nayining retikulyar formatsiyaga ta'siri bilan belgilanadi, chunki bu tuzilma organizmning faolligi darajasiga javob beradi.

Hissiyotli ifodalanishlar esa asab tizimining biror bir seskantiruvchiga



javoban faollik darajasining o'zgarishidir. Nazariyalarning alohida guruhini hissiyotlar tabiatini kognitiv omillar, ya'ni, tafakkur va ong orqali ochib beradigan dunyoqarashlar tashkil etadi. Ularning orasida, birinchi navbatda, I. Festingerning kognitiv dissonans nazariyasini ta'kidlab o'tish lozim. Uning asosiy tushunchasi dissonansdir. Bu sub'ektning ob'ekt haqida psixologik qarama-qarshi ma'lumotga ega bo'lgan vaziyatda yuzaga keladigan salbiy emotsional holat. Bu nazariyaga muvofiq, ijobiy emotsional kechinmalar odamda o'zi kutgan natijalar tasdiqlanganida paydo bo'ladi. Bunday ijobiy emotsional holat konsonans sifatida xarakterlanadi, salbiy hissiyotlar faoliyatdan kutilgan natijalar va voqeyi natijalar o'rtasida farqlar yoki dissonans bo'lganida yuzaga keladi. S.Shexterning kognitiv-fiziologik konsepsiyasiga asosan, paydo bo'ladigan emotsional holat qabul qilinadigan rag'batlar va yuzaga keladigan jismoniy o'zgarishlar bilan birga insonning o'tmish tajribasi va uning vaziyatni sub'ektiv baholashi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda baholash uning dolzarb qiziqishlari va ehtiyojlari asosida shakllanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy faollik va muloqotchanlikni shakllantirish shaxs rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biridir. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi orqali faol, erkin fikrlaydigan va kommunikativ jihatdan yetuk avlodni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.
3. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. Nemov R.S. Psixologiya (3 jildlik). – Moskva: VLADOS, 2015.
5. Vygotskiy L.S. Shaxs va uning rivojlanishi psixologiyasi. – Moskva, 2014

